



UO'K 93/94 377.2

O'ZBEKISTON VA HINDISTON MAMLAKAT XALQLARINING SPORT SOHASIDAGI MUNOSABATLARI

ASADOVA RA`NO BAYMANOVNA

Iqtisodiyot va pedagogika universiteti dotsenti, Phd

MAXMUDOV BEKZOD ESHQOBIL O`G`LI

Iqtisodiyot va pedagogika universiteti Axborot texnologiyalari va raqamli iqtisodiyot fakulteti talabasi

Ключевые слова: независимый Узбекистан, Индия, международные отношения, международное сотрудничество, правовая основа, совместные соглашения .

Annotation: This article speaks of cooperation between Uzbekistan and India in the cultural field, identifying the main trends and prospects for further mutual cooperation.

Key words: independent Uzbekistan, India, international relations, international cooperation, legal basis, reciprocal agreements, trade

Davlatlar o‘rtasida do‘stlik va o‘zaro aloqalarni mustahkamlash va yanada rivojlantirish borasida sport sohasidagi hamkorlik alohida o‘rin tutib keladi. Sport – bu xalqlar o‘rtasida do‘stlik rishtalarini bog‘lovchi tinchlik elchisidir. Shuning uchun xalqaro munosabatlarni mustahkamlash va mamlakatni butun dunyoga tanitish borasida sportning alohida ahamiyatga egaligi bejiz emas.

O‘zbekiston mustaqillikka erishgach, yurtimizda sportni rivojlantirishga katta e’tibor berila boshladi. Chunki u bir tomondan – millatning sog‘ligi va farovon hayotidan dalolat bersa, ikkinchi tomondan – turli mamlakat xalqlari hamkorlikning o‘ziga xos shaklidir. Respublika rahbariyatining mamlakatimizda jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish borasidagi sa’y-harakatlari tufayli mustaqillik yillarda jahon sport maydonlarida yangi o‘zbekistonlik ismlar kashf etildi. Mamlakatimiz siyosiy mustaqillikka qo‘lga kiritganidan so‘nggina o‘zbek sporti xalqaro maydonlarda o‘zini muvaffaqiyatli namoyon etib, o‘zining munosib o‘rnini egallay boshladi. “Bugungi kunda hamma joyda sportning milliy turlari qayta tiklanmoqda, – deydi O‘zbekistonning Birinchi Prezidenti I.A. Karimov. – O‘zbekiston xalqaro sport hamjamiyatida dadillik bilan o‘zini ko‘rsatmoqda”[1] stahkamlashga ko‘maklashadi.



Mustaqillik yillarda mamlakatimizning turli sport vakillari xalqaro musobaqalarda ishtirok etib, Vatan shon-shuhuratini muvaffaqiyatli himoya qilib kelmoqda. Alohida ta'kidlash joizki, sportchi yurtdoshlarimiz dunyoning mashhur sport yulduzları bilan musobaqalashish imkoniga ega bo'lganlar. Jumladan, g'oliblik uchun kurashda ko'p marotaba o'zbekistonlik sportchilar Hindiston vakillari bilan bellashishga to'g'ri kelgan.

O'zbekiston va Hindiston o'rtasida sport sohasidagi hamkorlik haqida so'z borganda, shuni aytib o'tish lozimki, ushbu aloqalar mamlakatlarning o'zaro madaniy munosabatlar bo'yicha bitimlar asosida amalga oshirilmoqda. O'zbekiston va Hindiston sport qo'mitalari o'rtasida sportchilarni tayyorlash, musobaqalar o'tkazish va xalqaro turnirlarda ishtirok etish borasida o'zaro hamkorlik bo'yicha maxsus dasturlar ishlab chiqilmagan. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoniga binoan, Milliy Olimpiya qo'mitasi tuzilgan edi. Qo'mita zimmasiga mamlakatimizda sport turlarini yanada rivojlantirish bo'yicha vazifalar yuklandi. O'zbekiston Olimpiya qo'mitasi o'zining asosiy maqsadlaridan birini boshqa davlatlar Olimpiya qo'mitalari bilan yaqin muloqot o'rnatishni belgilab olgan.

Mazkur vazifalarni amalga oshirish maqsadida, O'zbekiston Milliy Olimpiya qo'mitasi tashabbusi bilan 1999 yilning bahorida Toshkentda xalqaro sport anjumani o'tkazilgan edi.[2] Ushbu uchrashuvda dunyoning turli mamlakatlari olimpiya qo'mitalari vakillari ishtirok etdi. Muloqot chog'ida milliy olimpiya qo'mitalari faoliyatini takomillashtirish yo'llari, yuqori malakali sportchilarni tayyorlash, xalqaro musobaqalarni o'tkazish kabi masalalar keng muhokama etildi. Xalqaro musobaqalarni hakamlash sifatiga qo'yiladigan talablarga, sport hakamlari malakasini oshirish muammolariga alohida e'tibor qaratildi.

Ushbu sammitda Osiyo Olimpiya Kengashi bosh kotibi, Hindiston vakili Radj Randxir Sing ishtirok etdi. U davlatlar o'rtasida sport sohasida ikki tomonlama aloqalarni yanada rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etishini ta'kidladi. Shu o'rinda u O'zbekiston va Hindiston o'rtasida sport sohasida hamkorlik yetarli darajada rivojlanmaganini qayd etdi. Shu bilan birga O'zbekistonning sport borasidagi salohiyatiga va yurtdoshlarimizning xalqaro musoboqalarda chiqishlariga yuqori baho berib, Radj Randxir Singx jumladan shunday dedi: "... ular nihoyatda yuqori toifali, va ularning mahorati yildan yilga oshmoqda. Lekin boshqa davlatlar bilan yaqin aloqalar yo'lga qo'yilsa, u bundan ham jadalroq o'sadi".

Toshkentda xalqaro sammitning o'tishi mamlakatimizda sportning ko'plab turlari bo'yicha xalqaro uchrashuv va musobaqalarning rivojlanishida muhim rol o'ynadi. Jumladan, 1999 yilning noyabr oyida Toshkentda erkaklar o'rtasida



basketbol bo'yicha "NIKE OPEN-99" xalqaro turnir o'tkazilgan edi. Ushbu musobaqa O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligining basketbol markazida Toshkentning MXSK basketbolchilari va Hindistonning yetakchi jamoalaridan biri – "Pondjob Politsiyasi" sportchilari o'rtasidagi uchrashuv bilan boshlandi. Mazkur o'yinda mezbonlar g'olib bo'lsa-da, aslida ikki mamlakat o'rtasidagi do'stlik va hamkorlik g'alaba qozondi.

So'nggi yillarda Hindistonda sportning har xil turlari bo'yicha tashkil qilinayotgan yirik xalqaro musobaqalarda o'zbekistonlik sportchilarining ishtiroki faollashdi. Xususan, 2000 yilning yozida Hindistonning Dehli shahrida erkin va yunon-rim kurashi bo'yicha uchinchi Osiyo championati bo'ldi. O'n beshta mamlakat vakillari ishtirok etgan mazkur musobaqada sovrinli o'rinalar uchun O'zbekiston polvonlari ham kuch sinashdi.

Hozirgi vaqtida o'zbekistonlik sportchilarining eng nufuzli musobaqalardagi g'alaba va yutuqlari xorijiy mutaxassislarini hayron qilmayapti. Chunki yil sayin yurtdoshlarimizning qo'lga kiritayotgan yutuqlari jahon miqyosida tan olinmoqda. Jumladan, Dehli shahrida bo'lib o'tgan kurash bo'yicha musobaqalarda yurtdoshimiz Dilshod Mansurov birinchi sovrinni qo'lga kiritdi.[3]

Yana ikki nafar o'zbek sportchisi ham to'rtinchini o'rinni egalladilar. Mazkur championatning o'ziga xos tomoni – u turli mamlakat sportchilarining do'stlashishiga hamda o'zbek-hind hamkorligining mustahkamlanishiga xizmat qildi.

Demak, O'zbekiston va Hindistonda sportning har xil turlari bo'yicha dunyoning ko'plab mamlakatlari vakillari ishtirokidagi xalqaro musobaqalarning tashkil qilinishi sport sohasida ikki davlat o'rtasidagi hamkorlikning ommalashuvi haqida dalolat beradi. Ikki davlatning sport federatsiya, uyushma va klublari o'rtasida bevosa muloqotlarning turli shakllarini qo'llab-quvvatlash ham belgilangan. Klub va federatsiya, sport delegatsiyalari, jamoalar, alohida sportchilar bilan almashishga, shuningdek, ikki va ko'p tomonlama musobaqalar, o'quvmashg'ulot yig'inlarini o'tkazishga katta e'tibor berilgan.

Ko'rib turganimizdek, ushbu bitim sport sohasidagi O'zbekiston-Hindiston hamkorligini yangi bosqichga ko'tarishda asos bo'lib xizmat qildi. Ushbu hujjatning amaliy ijrosi sifatida Xalqaro kurash uyushmasining faoliyatini ko'rish mumkin. Ma'lumki, milliy sportning bu turi hozirgi kunda dunyo miqyosida keng ommalashib bormoqda. Lekin bunga erishish uchun jahon sporti hamjamiyati miqyosida katta tushuntirish ishlari olib borildi. 2002 yilning dekabr oyida Dehli shahrida Xalqaro Kurash uyushmasi (IKA) Ijroiya qo'mitasining yig'ilishi bo'lib o'tdi va bu



Hindistonda o‘zbek kurashining keng ommalashib borayotgani to‘g‘risida yana bir dalolatdir.

Milliy sport turi kurashning faoliyati nafaqat Hindistonda, balki ko‘plab Osiyo mamlakatlarida ham keng ommalashib bormoqda. Bu yana bir bor sport sohasidagi hamkorlik turli mamlakatlar xalqlari o‘rtasida do‘slik va o‘zaro hamjihatlikni mustahkamlovchi omil sifatida xizmat qilishidan dalolatdir. Ayni paytda sportdagi aloqalar xalq diplomatiyasi rolini o‘ynab, xalqaro munosabatlarni mustahkamlashga ko‘maklashadi.

Foydalanildan adabiyotlar:

1. Karimov I.A. O‘zbekiston buyuk kelajak sari. – T.: O‘zbekiston, 1999. – B. 59.
2. Xalq so‘zi. 1999, 23 апрел
3. O‘zbekiston Respublikasi Makroiqtisodiyot vazirligi davlat statistika departamenti.- O‘zbekiston va Hindiston Respublikasi o‘rtasida sport sohasidagi almashuv bo`yicha axborot –ma`lumot materiallari